

821
3-62

MUHAMMAD SIDDIQ




MUHAMMAD SIDDIQ

YOHU

Muhammad Siddiq (Alijonov) 2000-yil Farg'ona viloyati Toshloq tumanida tug'ilgan. "Respublika yosh ijodkorlar forumi" (2017), "Zomin seminarasi", "Samarcand she'r oqshomlari" (2018), "Ozbekiston bahori" (2019) kabi anjumanlar ishtirokchisi. Hozirda Ozbekiston davlat san'at va madaniyat institutida tahsil olmoqda.

"**ADABIYOT**"
NASHIRIYOTTI

ISBN 978-9943-6779-0-6



BIRINCHI KITOBIM



YOHU

SHE'RALAR

Nashr uchun mas'ul:

G'ayrat MAJID,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi o'rmosari

Mas'ul muharrirlar:

Xurshid DAVRON, Ma'mura ZOHIDOWA

Ushbu to'plamda hali yosh bo'llishiga qaramasdan o'zining keskin hayotiy xulosalari, chuqur hissiy kechinmalarini she'riy satirlarga mohirona tiza olgan Muhammad Siddiqning she'rlari jamlangan. Shoir eng toza hislarini she'rxonga ilmar ekan, o'zini ulkan qalb egasi, yurtning chin o'g'loni, mehribon farzand sifatida namoyon etadi. Ushbu to'plamdag'i she'rlar bilan tanisligan kitobxonlar shoirdan yana boshqa kitoblar kutib qolishiga shubha yo'q.

Ushbu kitob 2019-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsija qilinib, "Ijod" jamiyat fonda tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6779-0-6

© M. Siddiq, 2020
© "Adabiyor", 2020

SHE'R HIMOVACHISIGA TILAGIM

Muhammad Siddiq bilan yosh shoir-u tarjimonlar davrasida tanishdim, suhbattosh bo'ldim. Tabiiyki, uning she'rlarida yoshlilik nafasi gupurib turadi. Yana she'rlaridagi ko'hna tariximizga hamma faslik, hamohanglik yoqdi. Bu sifatni kamdan-kam yosh shoirda uchratgannaman.

"She'rni aynan birgina qiyos bilan cheklay olmayman, – deb aytadi Muhammad bir suhbatda. – Holatdan kelib chiqib, ayrim ichki his-tuyg'ularga tutiladigan ko'zguni she'rga oxshataman, masalan, xayol, iztirob, sog'inch, ba'zida isyomming so'zdagi shakliga Yanashe'r, bu – shoirning aslkorinishi, hamma niqoblaridan xoli olami, she'r – shoirning Vatani. U faqat she'rda nafas oladi, she'r ichida yashaydi, xolos..." Uning bu fikrlariga to'liq qo'shilaman. Yana menga yoqqani, Muhammad Siddiq she'r yozish bilangina cheklanmay, she'rni himoya qiladi, internet tarmoqlarida tengdoshlari "she'r" deb e'lon qilayotgan yozmishlariga o'zining jiddiy va xolis munosabatini

ochiq-oydin bildiradi. Demak, u so'zchi ijod-korning milliy hayotimizdagi o'rmini teran angraydi.

Yosh shoir do'stinga she'riyatimizni bo'yitadigan satrlar yozishini tilab qolaman.

**Xurshid DAVRON,
O'zbekiston xalq shoiri**

olarg' shaxsiy nafotida qaytarishga qarab.

Shaxsiy nafotida qaytarishga qarab.

Nogoh chiqqanima vaqt changalidan, umrim tizginidan xalos etsa Haq, borar edim bola qalbimga ildam, bola nigohimga qaytardim xushvaqt.

Chopqilab borardim chang ko'chasi dan, berkinib olardim dundan ohista.

Onam etagida, yoz kechasida ertaklar tinglardim tundan olisda.

Na sayroqi quşlар polaponiga, na baliq chuvaloqlariga ozor berrardim, na-da xom daraxt joniga tosh otib qillardim o'zimdan bezor.

Qaniydi, chiqsaydim vaqt mehvaridan, umrimni to'ñkarib qo'ysaydi Razzoq! Qalbimni asrardim, yoshlik qa'rida nafsim ko'zlarimga qo'ymasdan tuzoq.

* * *

* * *

Aka!
Bir sening qaddingni ezadi tashvish,
Mening g'o'r boshimni elitar sharob,
Tunlari bag'rimda balqjan osoyish
Mendan o'tib senga tekkan iztirob,
Goho yodimdan ham chiqardim shoshib,
Baribir ortimdan suyab tolmaiding,
Mening chohlarnga sen o'zing tushib,
Yukxaltanga solding barcha omading.

Aka!

Men, xubbinni kechir, mo'min jigarim,
Qo'y endi meni deb toyishlarngi.
Sog'indim mehribon, qattiq qo'llaring,
Sog'indim do'q urib koyishlarngi.
Ey, mening kimligin unutgan to'ram,
Kechalar yomg'irda qushdek qunishgan.
Sening bu dunyoda mendan ham ko'ra
Haqqing ko'proq edi shoir bo'lishga.

Kechaga aylansa rangsiz bugunim,
ertalarim esa olis o'tmishga.
Ilk bor ruhimga in solgan tuyg'uni
ulgurib qolsaydim mahkam tutishga.

Ortga aylansaydi umrim millari
yashaganim sari
borsam kichrayib,
bo'ynimda ilondek yotgan yillarning
zahridan bol topib ichganim sayin.

Bir o'ngirdan sakrab go'dakka do'nsam,
o, undan narida -
tug'ilnagan dil,
yaralmagan yo'qlik qa'riga to'lsam,
so'ngra nafas olib tortsaydim yengil.

Kutaversam najot izlab qog'ozdan,
kelmaydimi, aytgil,
qo'lingdan kelish?
Muso ko'rgan ushshoq tog'dek bexosdan
ovoizingni tinglab to'kilsam, ey lishq!

Tong yaqin.
Subuhly mujdalar yuzar,
Siz bunda intiq, men kimni izlaram?
Yo'l qarab toliqsan ko'zlarinqliza
Jimirlab ko'rina boshtlar izlarim...

Bo'g'zimni tig' misol yirtgan har so'zim
Tunlarni lahzada aylagay yorug'.
Tong yaqin!

Onajon!
Tin oling bir zum,

Saharxez qushlar-la jo'shib beanduh.

Kechalar uzlatgaga behol to'sh berib,
O'llim parisiga mag'rur tik boqish
Garchi qo'lingizdan kelar
Va jerkib,
Shu xudbin bolam deb, tuyqus yutoqish...

Hamon so'qir ko'zim ochilmasa-da,
Ko'z yumib ketmagan sizmi,
Har safar?
Sizmi, go'daklarim orom olsin deb,
Mudramay kuylagan baxmal allalar?

Ostonada turar bolalik kabi
Kunlar hayqirgancha aytil ramazon.

Endi kiprik qoqing bir bora, axir,
Tong yaqin!
Tin oling bir zum,
Onajon...

Bu kunlar ignadek botar yodinga,
Hali ko'zingdan yosh yuqi ketmagan.
Serfusun lahzalar bordir oldinda,
Hali qancha rang bor biz kashf etmagan?

O'ksima, don tutgan qushlarining goho
Ochiq kaftalariningni ketsalar cho'qib.
Hasratlashib o'itir, oy bilan tanho,
Chuvalgan yo'llardan menga sharf to'qib.

Kutgil, maktubimdan to'shab poyandoz,
Ufqning suratini chizgin bu cho'lga.
Hali qaytajakman qilgancha parvoz,
Xaritaga kirsma men ketgan o'lka...

Yomg'ir sochlaringni silaydi mayln,
Shamol ufq sari yetaklar karaxt,
Umrimizning sokin bog'lardan, o,
Bolalik – indamay ketilb qolgan baxt,

U kunlar qaytardik qirlardan xushvaqt,
Gullar-la bahorlar haqda kuylashib.
Gulim, esingdami?
Yaxshi ko'rarding

Timmay kapalakklar bilan o'ynashni...

Xotiralar kezarsov uq xonamni,
Tunim o'tib borar seni sog'inib.
Eslaysanmi?

Atay men-la bo'lgan deb,
Yashirib qo'yardim qo'g'irchoq'ingni.

Hamon termulasan horg'in, jovidirab,
Munchog'i uzilgan go'dak singari.
O'zingga kelolmay izlaysan hanuz
O'shal mehrbulloq tutgan onlarni.

Bu kun torlik qilar xushro'y ko'yaling,
Yana-da yoqimli tuyular gullar.
Kimsasiz xonangda ma'sum boladay
Kechalar qo'g'irchoq o'ynaging kelar...

Ey, uchmox ranglari balqigan mardum,
Girvatin qirq pari qurshagan setor,
Silqib oqajakkdir yaxlagan dardim,
Tomchidek kaftingda toblanay bedor!
Boryapman tushlaring obod etgani,
Eshlib,
yolvorib,
ilhaq kut meni.

Ey najib yog'ishlar ichra sargardon,
Ey ko'zları yulduz, nigohi foram.
Uchgin, hovuchimda keltiray osmon,
Qanotlaring olsin bir nafas orom.
Boryapman ayqashib, taltayib, tantib,
Bo'zarib,
elanib,
kut meni intiq.

Bir nafas to'kilbar bo'g'zimdan navo,
Zamin ikkimiiga hech ters kelmagan.
Ey, hushim sahnidan ketmagan ma'vo,
Tushlarim soyasi tushgan gulbadan!
Boryapman, qafaslar - ojz, yo'l - g'arib,
Kut meni
tentirab,
ihrab, telbarib...

Qushlar sayramoqda,
daryolar – toshqin,
men nechun tilimi tishladim – jumman?
Senga yetishmoqqa bunchalar shoshdin,
Ayt, Sening rostliging oldida kimman?!

Nechun buncha o'chman,
talpinaman, dod!

Dahri dun mastligin izlab qadahdan?
Nahot, bir ko'ngilni etolmay obod
jannatingga kirib boraman shaxdam?!

Nogoh borlig'immi chulg'amish hadik,
qo'rqmay yashayapman,
axir, o'simdan.
Badbin taqiqlarga takror boqib tik
qiyomatni kutib yotgan qulgingman!

Shafqat so'ramadim –
kechdim bu jondan!
Sulaymon qahriga kelgandekman duch,
Rivoyatlar tinglab Shayx San'on dan
vaslingni ko'rmoqqa yig'gamidim kuch?

Bu ne xilqat edi?
Ishq tutgan malak

bergan iztirobdan topmasam panoh!
Bandang shuncha azob bersa, ne qilay,
Sening g'azabingga yo'liqsam, Alloh?!

Ozor berdim nozik ko'nglinga,
Bilib-bilmay qo'ydim ranjiti,
Bu og'riqqa bormikan malham?
Davosini bilsaydi "Fit-tib".

Barham topmas bu arazlashuv,
Bekor bari yozgan xat-nomam.
Bu tun ushlbu sevgi qissadan
Bitmoq mumkin "Muhabbatnoma".

Boshdan o'tdi ne-ne sarguzasht!
Hamon borsan o'tli g'amzada.
Shu firoqni yengib o tsak bas,
Joy berilar bizga "Xamsa" dan.

12 • 13 •

TAJJUB

Bemajol hayiqib tursam g'animdan,
do'stdan gina qilib changitsam maydon.
Jonimni avaylab yashaganimdan
uyalmay ertaklar to'qisam shodon.

Nogahon og'riqdan o'krab yuborsam,
lat yegan misoli
o'lim tig'idan.

Bosh egib
volidam qoshiga borsam
va chora izlasam oksib yig'idan.

Xatardan yuz bursam loshimni sudrab,
so'ngan yulduzlardan istab harorat.
Ovozimni qayrab,
tong ichra mudrab
tuproqqa qorishmay kutsam halovat.

Bo'yiga bo'y qo'shar ko'kterak,
Erta tongdan uyqusini uchib
Qulochini kengroq yozar bog'.
Shoxlarini tebratar gujum,
Go'rden tirk chiqtar tag'in tok.

Tut eshitar qushlar chug'urin.
Chinor ildiz otib chuquarroq
Ayoz jonin olar sug'urib.

Qadim daraxtlarning safini buzzam,
barglar ko'kasidan talab qilsam nur.
Barxanlar bo'g'zida tortsam homuza,
bir tomchi qon to'kmay yengilsam
mag'rur.

Nasllar g'azabin qo'zg'atsa holim,
ojizlik ko'pchigan bo'lsa qonimda -
Yo Rabbiy!
Shunda ham
qismattdan nolib,
qo'rqlmay ketayapman nahot yoningga?

Tilimni kuydirlsa kechmishim rasmi
va pargola etsa ko'nglimni qasam,
qancha avaylamay –
ozor yetmasmi,

Joining og'rimasmi, sevsam, azizam?

Qoshingga bormasam
o'zimdan asrab,
qizg'onib, ketmasam soyangdan nari.
Behol gard yuqmasmi kipringing uzra,
ko'zlariningni o'ylab chiqsam tunlari?

Kelarmi, labingga tabassum taqib,
bir zum bu qafasdan etguvchchi xalos?
Senga baxt berguvchi –
men kimman, axir?

Almisoqdan qolgan roviyman, xolos.

Mudom anduhlardan ortmas so'zlugim,
Kuch ber, g'amlaringdan forig' etgani.
Bu yorug' olamga, qora ko'zligim,
netay, kelgan bo'lsm
Seni sevgani?

— 119 —

Ortiq yashamoqqa yetarmi kuchim?
O'llim ham choradek ko'rinnas gohi.
Aytgil, meni qaysi gunohim uchun
dunyoga badarg'a etding, illohi?

Uzlat naiot emas ozod bo'lmoq-chun,
qanot yozmoq uchun osmon ham tordir.
Nuringdan bebahra yaratilgan qul
Iblisning shakliga qadar iqordir.

To'rt taraf –
zulumot,

taqiq,
zindon,

qulf

Nayson iforlarin keltirgan Yusuf
va bulg'anib borar kenglik – tashqari.
Nayson olmas, Zulayho – nafsdan boshqani!

Balki, meni asrab kelgan shu hujra,
banki, avaylagan, bezavol suygan?!
Lek vaslingga yetmoq ilinji ichra
Dajolning yo'liga intiq osiyman!



Ildizimda jilva aylar

nabotot,
tuproq,
ruhimgacha qadim ishva – so'z.
So'ng borliq tubidan bo'ylagan sabot –
ko'zlarimni so'qir aylagan Afro'z!

Iloli,
bo'g'zingdan sirg'algan nafas –
unrim – dargohingga sig'magan o'lim,
vujudim – nigohing tushmagan qafas,
aytgil,
Ozodlikka chiqdimi ko'nglim?!

Yetmasin moziyning ilki – xunolud,
Qo'lingdan tutmasin nafs bandalari.
Poyingga yiqlimish,
g'azabingni tut,
ishqsiz salaflarning go'yandalari.

Bu kecha saslarining – nafaslilik otash,
bir qultum sharobdir sendagi vujud!
Mavlosiz mehroblar qo'yninga beshasht
nechun manglayingdan to'kilar sujud?

Tashqariga chiqma,
yomg'irlar tindil!
Endi qanot yozma, bori shu – shodlik.
Aziyat yetmas hech qafasdan – tundan,
faqat ozor berar senga ozodlik.

Axir, sen – xazonrez kuz og'ushida
yashil liboslarin yechmagan hilol.

Menmi, bu falakning sho'r yog'ishida
bir tomchi yosh so'rab bo'zlagan Billo?

Qara, olislarda yashnar tiyramoh,
Dargohiga yetmoq mushkul ravoqli.
Netay,
og'ir ekan seni asramoq,
boshimda bor ekan seni sevmoqlik?!

Vujudimdan silqib tushdi qish,
Yashil barglar chirmashdi – bahor!
So'ng g'unchalar etdilar olqish,
Dov-daraxtlar alqadi darhol.

Bir hayqiriq teshdi bo'g'zimni,
Osmon oldi yurakning yukin.
Nihoyat she'r bitdi, ko'ksimga
Kiyimlarin yechib otdi tun...

Yetar, bas! Orziqib kutganing bekor!
Kelsa ham eltmagay baxtning ko'shkiga,
U parvoz qilmoqda – yuksak, telbavor,
O'tkinchi yel kabi she'rning ishqida.

Ne bor arzigulik allang satriga,
Qani, siyoh yutgan dunyoning gashti?
Menmi, ayrt,
Kun kelib, hatto qabringga

Bir tup gul qo'yemoqqa qolmagan shashti?!

Ona, nomard chiqdi alpim deganining
Shoirim deganining – so'z yuqmas nolang.
Sog'ingan mahaling, topsin deb taskin,
Men, o'sha she'r yozib ovungan bolang...

Takror ko'zlaringga kelaversam duch,
Ayt, qanday til yutib umidim uzsam?
Mening muhabbatim hadya etg'an kuch
Yo'llaringga faqat to'shasa g'ussa!

Ol, mana, jomimni, darmon bo'lgulik
O'zga davlatim yo'q, kor qilsa koshki!
Qoshingga yel kabi tentirab keilib,
Qo'llimdan ne kelar sevishdan boshqa?

Yana ko'zlaringga duch kelsam takror,
Rangin tushlaringdan izlasam ulgu.
Sochlariningni tarab o'tsa kuz - g'addor,
Yuzingda barq ursa yig'i va kuugu.

O, butun borlig'im bitirsa sukut!
Yarador qush misol uchsa ovozim.
Sho'xchan olib borsam qo'lingdan tutib,
Unsiz bo'g'avera bu bog' havosi.

Kuyinma, sevarim, orziqib kuttang,
Yo'llaringga to'ksam orzularim - puch!
Ayt, qanday til yutib umidim uzsam,
Takror ko'zlaringga kelaversam duch?

Yo'llimga peshvoz chiqar
arg'uvonlar - muallaq,
Ketishimni istamish
kelgan mujdalar - ilhaq.
Na o'lib o'la oldim,
na tirildim tug'ilib,
Yarmim - shayton,
yarmim - hur,
Hukmingga ko'ndim, Barhaq!

Kaftingga qo'narmikan
ko'ksimga bitgan qanot,
Poyingdan o'parmikan
kiftimni yirtgan qanot?
Na yerga qo'na oldim,
na-da uchdim tegrangda,
Yarmim - qafas,
yarmim - qush,
Na tutqunman, na ozod.

Jomimni ol, sevdigim!
Sendan qachon ajradim?
Gul umringni xazondekk
ro'yolarga xarjladim.
Ko'zlaringga tik boqib,

hirsga belandi ruhim,
Yarmim – siyoh,
yarmim – qon,
Devorlarga sachradim!

Kundan qamashmadimi
Ona, diydang qarosi?
Na o'g'ling bo'lta oldim,
na shoirman sarosar.
Tushlarimda she'r o'qib
bergum tarozubonga,
Yarmim – bibisht,
yarmim – cho'g',
Bo'g'zimgacha arosat!

Ishon, seni baxtga eltaman, gulim,
Yo'llarim bir kuni bo'ladi ravon.
Hozircha ko'ngilning telbavash qulin
Toza hislaringga ko'rmayman ravo.
Ishon, keltiraman moviy osmonni
Mayin qanotlarining ostiga shundoq.
Hozir mening alvon tayyoralarim
So'qir so'zlarimdek qolgan muallaq.

Men – bahor ishqida sarg'argan o'lan,
Kuzgi shamollarga mag'lub, mustahiq.
Sendan hech narsani qilmayman talab,
Hali tuyg'ularim chiqadir sahib.
Faqt shu ishonchni ko'p ko'rmasang, bas,
O'zing panohingga olgin, ma'voyim –
Ruhimning qabargan terskaylaridan
Murg'ak bola kabi boqqaq avomni.

Kel, deb aytolmayman va yoki dadil
Huzuringga yeldekk borolmam bu kun.
Bari qilmishimga istig for aytib,
Istiqbol so'rolmam bir o'zim uchun.
Bir siqim turproqdan ko'klar umidim,
G'am to'kkan ohorni etaman tavof.
Ishon, seni baxtga eltaman, gulim,
Yo'llarim bir kuni bo'ladi ravon.

Bu chohdan qutqar yo tashla batamom,
Muallaq turarkan toki qo'llaring...

Qollarim muallaq turar ekan to,
Ko'zlarim jannatiy vodiya mahtal.

Ey, yor!
Yangramasmu sendagi sado,
Kipriging ostidan chiqmasmi sahar?!

Men yashay boshlasam senga topinib,
Sendan najot istab so'rasm panoh,
Mumtoz torlar asta ruhingga enib,
Soching to'lqinida o'qisam sano.

Ko'k uzra bo'ylagan qoya labida
Qanotsiz qush kabi jonimmi alqab
Uchsam,
Marhamating azim lavhidan
Qismatin charxida tig'day yaraqlab.

Ey, yor!

Ortga qaytma, manzilimiz bir!
Axir, yo'liqtirmas dilga tasodif.
Ayt, yana kim bizdek o'zdan olisdir,
Kim bizdek o'immoq-chun bo'lgan, ayt, sodir?!

Ko'zlarining ul yurtga intiq ekan to,
Ko'rimmas shu ondan hayot yo'llari.

Yo'llarimiz tutashmagandek
Ko'zlarimiz kelmas edi tik.
Hamma kabi sevib qoldik, lek
Biz hammaga o'xshamay sevdik.

Biz birovga qilmadik taqlid,
O'zgalarغا suqlamadik ko'z.
Xudoga ham erkalammadik,
Muhabbatdan ochmadik ham so'z.

Biz hech kimga o'xshamay sevdik,
Kundek ravshan edi tunimiz.
Menga alam qiladi lekin,
Hamma kabi ayrılganımız.

TAVAJIUH

Horg'in nafasimda – totlig'sabolar,
Illohiy mujdalar bordir yodimda
Va tegramda mayin ohanrabolar,
Bir mayin yog'ish bor zuhurotimda.

Tovonim kesadir har so'qmoq – nafis,
Izg'iymen moziyning doirasida...

Va men-la xazonlar borar izma-iz
Yashil lavhalarining xotirasida.

Daryolarga bordim!
Sig'may kaftingga,

Naqshin o'zanlarga sira yolchimay.
Tashnaman – lahzalik najib taftingga,
Soyangni qo'msagan qonto'sh tomchiman.

Poyingga to'kilmuoq istayman hargiz,
Asrayman yoshimning tiniqlarini.
So'qir ko'zlarimga sanchaman hanuz
Nafsimning bahaybat simiqlarini.

Ruhimda adashgan totlig' urvoqdekk
Ohangga talpindim har nafasimda.
Tuproqqa belandim...
Qilgin tuproqqlik!

Xalos et
zarralar
iskanjasidan...

Ketarkan suvrating o'ngimdan xushbaxt,
labzalar izmidan chiqdim ustuvor.
Soyangga evrildim –
aylandim qushga,

poyingga surinib kuyladim takror.
Kelarkan nafasing –
ohangga to'ldim,

muhanbar iforga qovushdim – sharafl
Chorasiz uzzatdan ko'rindi yo'llim
va yorug' qismatga bo'ldim musharraf.

Bari go'zal edi, na-da borliq keng!
Kuzatdim, to'kilib yo'lsiz irmoqqa.
Nahot, Sendan kechmoq...
o'ilim bilan teng?
Jazm etgil, qaytmoqqa – tiriltirmoqqa.

SUBUT

Nahot, anduhlardan senga gul tutdim?
Ey, hulvo istagan kabutarginam.
Necha maloyikdan marhamat kuttim,
Mehringdan yuz burib, daryodil Onam?!

Ostonangdan hatlab muzladi ko'nglim,
Kaftingga peshonam tiradim bo'zlab.
Takror huzuringga o'ksinib keldim,
Yana senga arz-u holimi so'zlab.

Do'st-u ulfatlardan keldi omadim,
Jilmayib baxtimni ko'rmoqqa baham.
Lek sening kulgiching ko'ra olmadim
Tunlari yop-yorug' tushlarimda ham.

Yana huzuringga keldim qon yutib,
Poyingga yiqlidim – qarog'imda yosh.
Beg'ubor sevgimning qo'lidan tutib,
Olib ketolmadim olislarga bosh!

Toki dargohiga chorlarkan Egam,
Umr'bos va'damda turarmal albat.
Qara, yashayapti odamlar beg'am,
Biz kun ko'rayapmiz,
Onajon, faqat...

Sendan boshqa kimga bitay she'r,
Sendan boshqa kimga gul tutay?
Kel, sochlaring ichiga yashir,
Toki dunyo rasmin unutay!

Kinga hadya etay lutfimni,
Sen turganda aylab karashma?
Mayli, buzma ko'ngil qulfini,
Lek ayirma pinhon qarashdan.

Yo'llarimga boqma intizor,
Tushlarimga zeb bersin sharm.
Biroq, qara, ketmoqda bahor
Senga yetib bormay qushlarim.

Mayli, qaytar olov shashtimdan,
Oydin tunlar og'ushida qol!
Jim kechgayman, ne bor boshimda,
Ammo sendan kechmoqlik mahol.

O'tkinchiman – vassalom! O'tay!
Hech yo'q tingla, qo'llarimgni ber!
Sendan boshqa kinga gul tutay,
Sendan boshqa kinga bitay she'r?

TASKIN

Bilaman,
Sening ham tushlaring aro
Yomg'irlar timmaydi harir va ezgin.
Axir, orzularidan voz kechmoq mahol,
Sevgi deb dunyoni unutmoq qiyin.

Bilaman,
Ko'zlarining qa'rida yotgan
Havvodan qolgan ul qadim asrorni...
Kiftimda qanotlar muz kabi qotgan,
Kutmog'ing behuda o'shal bahorni...

Butundan qidirma
Baxt-u kushoyish,
Na oy-yulduzida bordir bir mantiq.
Na-da iqlimida qongayadir xohish
Va na kunlariida aylanar tartib.

Bir Qo'shiq bor!...
Qo'shiqki, kuylashga tortmaydi ta'bim,
Qonimda otamning qaynar vijdoni.
Ozodlik xatini olgan qul kabi
Bosh tekkizay desam, yo qdir osmonim.

Bir Ayol bor!
Agar yanglishmasam hali ham tirik,
Ko'zлari qizargan, qo'llari qadoq!
Ortimda Quyosh bor,
Ko'zimni yirib
Qarasam, qarshimda chayqalar qada.

Toki yig'larkansan zahm komida,
O'zga olamlardan kutib suyanchiq,
Bilaman, tubsiz jar bordir ortida,
Lek faqat biz uchun
Shu Eshik ochiq...

Bir Qo'shiq bor!

O'TINCH

Sizzdan iltimos shu:

Bir lahzaga jim,
so'z qotmay tin bering quvnoq dudoqqa.
Boshimni egmoqqa qo'ysam gar ruju,
nega g'amginsan, deb tutmang so'roqqa.

O'tinaman, titmang dil qatlarini,
chang solmang taqiqdan kuygan xatomga.
Teginmang,
zarradek illatlarini
xislat deb o'yagan sarkush odanga.

Mayli, o'z holiga qo'ying ayni dam,
egilgan qaddini ishq tilkalasin.
To'yib suktlansin,
axir, aynigan
kalomlarga to'ldi Yofas o'lkasi.

Barin qo'yib bersam ko'ngilga,
O'zim uchun o'rfansa bu jon,
Taqdir yana menday o'g'ilga
G'urbat taqdim etar begumon.

O'ylamasam tinar urholar,
Balki, chatnar dil shuurimdan,
Shundoq o'tib borsam dunyodan,
Boshim egib Yor huzurida.

Tunning mayin sochlari aro
Porlab tursa yorug' yulduzim,
Odimlasam asta, beqaror
Kunlar tushdek ketsalar to'zg'ib...
Qo'rquv sabab emas, o'limga
Duch kelmoqqa shoshmadim hech vaqt.
Barin qo'yib bersam ko'ngilga,
Ertal-indin kelar Qiyomat!

IQOR

Shuncha tirishganim ketgach befoyda,
Ona, ko'zlaringga qanday qarayman?
Balki bu so'qmoqlar topar niyoya,
Balki bir kuningga bazo'r yarayman.

Ehtimol, yaproqdek to'kar tiyramoh
Yelkamning bitmagan chandiqlarini.
Men qachon ochaman,
Suting kabi oq -

Orzumand tushlaring sandiqlarini.

Ona, yetmog'im-chun sening qadringga,
Shartmidi olisda munkib zorlanish?
Shartmidi, qo'llaring tutib yomg'irga
Jimgina ko'zimdan narida qarish?!

Bari qilmishimga iqrorman,

Tamom!

Bas, erka jonimni berishga shayman.
Sening bolangmidim tug'ilganim on,
Sening bolang bo'lib o'lmoq istayman!

Yulduzlar ham tortdilar xira,
Oy kulgichdek so'nikkan, bejahd.
Sendan qolgan mas'ud xotiram
Yo'llarimni yoritar har vaqt.

Kun tig' bilan chiqar, ohista
Zulmatimga qo'yilajak chek.
Chorlaganing bilan olisdan
Hamon boshim oqqan taraf berk.

Kech bo'lsa-da, his qildim arang,
Anglab yetdim bu tuyg'u mag'zin.
Ko'zlaringga endi tik qarab
O'lish uchun yashasam arzir!

Loshin olmas ko'klamdan iqlim
Va xush yoqar gullar ifori.
Moziyning bir burijidan chiqib
Senga yetgum, o'zimdan tonib!

Hatto, tundan topgum tajalli,
Borliqni tark etajak kadar.
Evrilamiz bilmay xatarni,
Kapakklar nafasi qadar ...

1.

T'evarakni qurshar yovqur sas-sado,
Izg'irin tun bo'yи chalar sibizg'a.
Ilviriq xazonlar shovullar hamon,
Yetaklab yam-yashil olamimizga.
Ko'zlariningdan tomar jumlik soyasi,
Ichimdan tirqirab chiqar tyramoh.
Bizga yarasharmi axir, azizam,
Qushlar orasida sukut saqlamoq?

4.

Oq-oysdin kechani bezatmish labing,
Nuri-la chulg'amish yuzlaring – durkun.
Tonggacha tegrangda o'rtanar qalbin,
Uzun kipriklaring titrashi uchun.
Sochlaringga do'nar ipak nasimlar,
Qoshingdan ketmaydi suvsagan bir qush.
Baridan kechib, ufq chegarasiga
Qo'llingdan kelarmi men bilan uchish?

Toki topgunimcha seni betoqat,
Toki yetguminimcha huzuringga shod,
Jismimi kuydirdi sovuq harorat,
Ichki dunyolarim bo'lindi obod.
Dardchil ko'zlariningda sayr etgunimcha,
Nafis qo'llaringdan tutgunimcha to,
Yashadim qanchalab nigoqlar ichra,
Qancha ishqislardan tilandim imddod!

3.

O'shal lahzalardan bo'lak nimam bor
Va yana nimam bor xotirdan o'zga?
Nahot, ketar bo'lsa iljinim bekor,
Men seni topsam ham hattoki kuzdan.

Bu manzara xunuk naqadar –
Qo'l uzatmoq yag'ir qo'llarga
Va yo'llingni uffqqa qadar
Tutashtirmoq besha'n yo'llarga.

Arang tilga chiqar so'zlarining
Ich-ichingga tashlaysan qarmoq.
O, tuflaging kelegan yuzlarga
Qanday jirkanch kulib qaramoq...

O'zni olib qochay qaysi tomonga?
Ezgin tonglarimda yomg'irlar tindi.
Bahorning etagin yirtgan shamollar,
uning badanga teginnang endi!

Qayerga yashiray va kimlar quvlab
ortidan kelar-u, jim yulqib ketar?
Gulning iforiga to'yan dovullar,
yashil yaprog'iga chang solmaang, yetar!

Loaqal pok yotsin baytul-hazanda,
Uchsa - osmon kengdir,
qo'nsa - dumyo zich.
Nozik qo'llaridan tutgan nasimlar,
endi ol labidan tilam mang o'pitch!

Axir, olib boray qaysi ma'vo(y)ga
va qaysi sahroga ko'may jununvor?
Ey, toza qonini ichgan saroylar,
tuyg'ularin xo'rlab bo'imang buzruk vor!

Qarayman endi qay yuz bilan - ayon!
Garchi borliq so'z-u Yordan qismadi,
qaysi vijdon bilan etaman bayon
qarshimda turgan yosh shoir qismatin?

Mana, shu holimcha - devona duldul
va Iblis qonida qaynagan she'rimi?
Yusuf qudug'iga mixlangan bulbul,
Sulaymon taxtida o'tirgan devmi?

Nahot bu uzzatdan chiqardim bir sas,
Yolborgum sukunat ichindan boqib -
O, endi xazonqa aylandimi, bas!
Hechqursa, toptamang, yuboring yoqib...

Ment! -
Natsin yengmagan bir motamsaro,
Intiho sharpasin xayol suraman!
Keksaygan shoir va yosh odam aro
jon talashib yotgan tirik murdaman.

Qahraton qo'ynida
chilla saqlashga
sharpalar tutoqib chiqdi o'yindan.
Men harchand urimmay o'zni oqlashga,
muqarrar – gunohim tushmas bo'yinidan.

Hali boshim uzra tarqamas tuman,
tovonim tilsa-da yashil maysalar.
Ayni dam
to'kilib yig'lamoqchiman...
daraxtlar qonimni ichib to'ysalar!

Boshingga ne ko'ylar tushdi, dardkashim,
Ayt, kimga suyandarding yovuq-yiroqda?
G'arib chumoliday halol don tashib
Yo kuning qoldimi gizli urvoqqa?

Hali ham bormisan,
Chang-to'zon ichra
Qulochim yetmagan zahrolud tuproq?
Bormisan, osmonim toqiga sachrab
Tamasiz peshonam silagan Kubro?
Qaydasiz,
Anjirgul bog'larim – shodmon,

Qaydasan,
Ko'nglimning tub-tublaridan
Yulduz elab turgan jayronko'z – yupanch?
Ayt, bilmay jomingga berdimmi sitam,
Mushtoq unlaringga yetkizzdimmi ranj?

Ayting, mahtalmisiz men ketgan rohga?
Hozir ham bag'ringiz ochiqmi, hamon
Ko'zlarin chim bosgan so'qir gumrohga?!

JANG

Biri olar ko'zlarin o'yib,
Biri o'qchib aytar vovaylo.
Og'ir kurash ketar tun bo'yи,
Chaqmoq kabi yaraqlar maydon.

Tongga qadar bunda bosh egmoq
Har botirga o'llim bilan teng.
Jim chekinay deyman-u, biroq
Jangchilarning ikkisi ham men..

Niqob bor tunlarning yuzida ichkin,
Tugamas o'ymoqi shu'lа ertaga!
Bugun tirik qolsam –
o'zimdan kechib,
yong'ir yog'maydimi, axir, ertaga?

Sochingdek kesilgan tunning bo'g'zidan
tirqirab yulduzlar uchganda – og'ir!
Bir tomchi bolalik insa ko'zingga,
Sevgilim,
ertaga yog'saydi yong'ir...

Qantydi, tomchilar kuyin tinglasam,
darchasidan omon o'tkazsa osmon
va tuproq isida
Seni anglasam –
yong'ir yog'sa edi tongda, Xudojon!

EHTIYOJ

Ruhim panoh bilsa yurak qa'ringni,
Xayyomning jomida to'lg'ongandek may.
Cho'chitib yubormay kipriklaringni,
Tushlaringga kirib borsam sezdirmay.

Yashasam umrimi sochingga burkab,
O'ylaring rangida behush qarism.
Qoyalarkunjidan bir kaft suv tarab,
Horg'in qushlaringga tutsam, farishtam!

Ko'nglingga chuqurroq yetganim sayin,
Xotirjam dunyodan voz kechib kulsang.
Mehr-la joniymi olsa Azroyil,
Sening xayollarling shaklida o'isam!

Tayyorman – bu tunda ishqingni kuylab,
Nigohing tubida uyg'onsam basir.
Roziman,
qismatim bir nafas siylab,
Ko'zlarling rangida bitsa Musavvir...

Garchi unutmoqlik dushvor kechmishni,
Garchi Jabor tavqin yo'nar ko'r qismat.
O'rnatmish tah-batah jondan kechishni
Nigohing tubida balqigan vuslat.

Avalab tushlaring ohorin holsiz,
Suvrating qizg'onib ushshoqlaringdan –
Sochlaringni o'rib o'titar Bilqis,
Payg'omlar kutgancha dudoqlaringdan...

Munbar yodding-la yashamoq – panoh,
Beshak ilinjingga hukm muqarrar.
Sening borliqningi,
Sevgilim, valloh,

His etmoq, anglamoq baxtdir naqadar!

* * *

BALOG'AT

Jondan kechsa bo'lar
bu kuz kechasi,
Tuynukdan termular sarkush Azozil,
Yo'lingga ko'z tикиб турар нечаси,
poyingga yiqlimish necha manozil.

Nayqamish bo'g'zini yirtgan qalandar
navosi borlig'im band etar shodmon.
Mahkumman – to boshdan tovonim qadar
Sendan iboratman,
Sen-la barbodman.

Qatlgoх – kaftingda qalqmish so'ngaklar,
nabiylar kalomi bitgan ey andom,
tushlarim ichinda,
Haqdan sen haqa
g'ilmonlar chit kiyib kutmish armug'on.

Bu uzlat to'lг' onib sochlaring aro,
Tubo barglariga to'lmish darchasi.
Iso nafasiga ishonib takror,
jondan kechsa bo'lar
bu kuz kechasi...

Qishdan omon chiqar edik, qorin to'q,
Onam qoqi qilar edi mevasin.
Tamshamb qo'yardi, chehrasi siniq –
Qo'shiн juvonlarning kelib havasi.
Devordan ko'rinsa serpusht shoxlari,
Yo'q edi suqlanib o'timagan odam,
Oxur bo'shamasdi bahor shomlari,
Bo'liq barglarida boqardim poda.

So'rida qushlardan qo'rib yotardim,
Yoz bo'yи kovshanib zog'ora chalpak.
Xomligida uzib, tisilab otardim,
So'ng tunda otamdan yer edim kaltak.
Akam tomorqaga mudrab suv tarar,
Dahunasin buzzgan shumlarni quvib.
Iosili mo'l bo'tsin, deya har sahar
Namoz o'qir edi pajmurda buvim.

Bir payttar men ham sho'x edim, bolakay!

Sen kabi beg'ubor edi ko'zlarim.
Qo'yninga kiritdim, qizdek quralay –
O'n to'qqiz bahorning qancha kuzlarin?

Bugun xayolimni band etdi bo'shiq,
Kechagi kunlarim tushga aylandi.
Yuragimni o'sha daraxtga qo'shib
Chopdim, qo'llarim ham qonga belandi!

Men endi yolg'on va'z o'qib netarmen,
Netar, chin lutf ila tilimni yorsam?
Bu ta'msiz balog'at shaklin yitarmen,
Qachondir qishloqqa yanglishib borsam!

Bulutlar tarqasin ko'zingizdan jum,
hurkib sabotingiz metin bastidan.

Vaqt yetdi,
uyg'oning qondosh tog'larim,
qo'zg'oling asrlar silsilasidan.

Toshga aylanmadim hali batamom,
demak, men tirikman,
jismin – dolg'ada.

Qarang, ho'v qoyalar o'smoqda hamon,
endi o'rningizdan turing, og'alar!

Necha yil qaqshatdi zog'lar davrasi,
necha bor tilimni o'ksib tishladim,
Qon yutib izladim sizni,
aziz daryolarim,

yelkadoshlarim.

Qancha kunlar kechdim tentib, sarsari?
Aslo topolmadim bu qo'shin tengin!
Uyg'oning,
bozomning cho'ng lashkarlari,
axir, qoshingizga keldim
bosh egib...

* * *

BOLALIK

Qachon bu so'qmoqqa yanglishib keldim,
qachonlardan beri yo'lim – notugal?
Chorla,
olislarda qolgan Mursalim,
olib bor o'tmishning mardud yodiga!

Qani endi, bolalik paytim
Shom tushguncha tutzorda daydib,
Pinjingizga kirsaydim takror,
Bulutlarda ko'pkari chopsam,
Tokivichdan yog' och ot yasab.
Quyosh chiqmay mактабга borsam,
Ilk sevgimning suvratin qo'msab.

Jonim o'rtandimi ishq karvonida?
Buncha jabr etmassa
ro'yolar raqsi!
Siniq qobirg' amni tanovorida
bormikan,
Jobirning otash nafasi!?

Qayga uzannmasin,
ilkin qaltilar,
har bosgan izimga to'kilat titroq.
Ko'zimda Qobilning nafsi yaltirar,
ko'nglimda – Hobildan to'rалган ingroq.

Qachon bu dayr aro tentirab keldim,
qachonlardan beri yo'lsiz bu vujud?
Kel endi,
mast-alast ulusga eltgin,
uchgin, ey, qanoti qayrilgan Hudhud!

Qani endi, kimdir shaxt bilan
Turtib qo'ysa - o'ngimga do'nsm.

Mudroqlarga oydin tun tilab
Uyg'onsam-u, bari tush bo'lsa...

Oldinda ikki yo'l turar sollanib,
Iktisi-da og'ir, ham juda yengil.
Qancha vaqt kerakdir,
O'zimni tanib

Idrok etishimga,
o'zimni yengib?

Izlayman tuproqdek zarrama-zarra,
jismimni parchalab kiraman jo'shqin.
Chuqurroq sho'ng'iyman - cheksiz hujayram,
soyalar nahrida qotaman - bo'shilq.

Hali ham izlayman,

Odam yetmagan
fasllar tug'ini tutib shiddatkor.
Hatto daqiqani yanchib o'taman,
so'ng lahma kunjida tentiyman abgor.

Tug'in qancha so'z bor,
yolg'on-yashiq va
Xazonrez subhga o'rangan beyuz?
Yana necha marta yashil eshikka
jin ilib ketarman so'nikkan fonus?!

Va Seni izlayman!
Manzilga yetmam,
Stuvsgagan barg kabi mehringdan judo.
Nahot, men - jimgina kelishing kutmay
bir umr yashashga mahkum mavjudot?..

Illi qush
Ilki yo'l aro sargardon...
Jisimnga ruh bergen qudratga qasam -
na verga kirarman,
na yutar osmon
agarda o'zimni bir bor aldasam!

* * *

* * *

Nadir ko'zlaringga ko'rinayotgan
larzon surat ichra alvon shamoyil?
Tilingiz uchida muz kabi qotgan
Kuylar tutib tursa
To'fon shamolin!

Ne bo'lgay,
men ham shod sizga ergashsam,
ketsam soyangizga unsiz qo'shilib?
Yantoqdek barg yozsam dalada-dashtda,
jim yashamoq sirin yetsam tushunib.

Nechun boshingiz xam,
dovshingiz o'ksik?
hamon kutmoqdasiz qaqlash harorat,
Peshvoz chiqsa hamki toshiqib
ko'ksim –
hamisha lang-u lang ochiq saltanat!

Poyingga yiqlksam – jannat ishqida,
av so'rab yukinsam – ko'rinsa rasmimg,
balki chegarasin toparman shunda
bir butun umrga sig'magan nafsning!
*

Nahot, hech ketmaysiz bexos quvonib?
Ne bo'lgay,
bu bog'ning mo'jaz faslda –
qor ostida ungan maysa misoli
chiqib kelaversam oyoq ostidan...

BORLIQ VA YO'QLIK ORASIDA

1. (Ona)

Yelar asov vaqtning shamoli,
Bog'larimni etgancha g'orat.
Ko'z o'ngimda yaproq misoli
Kuzaradi naiib bir surat...

Bu suratni devorga osib
Boqish uchun, qilib ko'zyoshi -
Oson bo'larmikin she'r yozish,
Yetarmikin cheksiz bardoshim?

2. (Erk)

Qo'i uzatsang kuyasan, demak,
Lab tekkizmoq amrimaholdir.
Yetishmasdan ketaman, dema,
Shu olovda qalbingni qoldir.
Yorug' qilsin toki falkani
Va ko'zlarining tortmasin xira.
Ketsang hamki, ortingda yurak
Yalov kabi tursin hilpirab...

4. (Parvoz)

Bu hujranning na eshigi bor,
Na mo'risi, na derazasi.
Lek devor bor, ya'ni bemalol
Chizish mumkin qushlarning rasmin...

3. (Tutqun)

Ufqlardan keladi xabar...
Ubemajol qarar o'ksinib.
Dil - xonaga qamalgan kaptar,
Derazaga urar o'zini.

* * *

Halki, abzal shahar to'ridan
malot kelgan kulbam quchog'i

ya cho'g'latsum ko'nglim o'rninga
hovli qolgan qumg'on, o'chog'in.

Pastqam hovli ayvomin bomdod
chulg'ar, meni elitar tushlar.
Uyg'otadi shivirlab bobom:
- Shoir, turing! Ijodni boshlang.

Na saharga qovushar ruhim,
na ko'nglimga sig'ar yangi she'r.
Yuzimga suv sevalar buvimi:

- Shoir, uyg'on! Qo'ylarga yem ber.

Axir, netar issiq o'rnnimi
sovutgancha tongga yuzlansam?

Ne o'zgarar, tortib burnimi
poda boqsam, shig'ir yozmasam?

Mona, oxir hafsalam so'ndi,
Tashlay, desam kechdir, qalamni.
Qayga izlab boraman endi

- Shoir, uyg'on! – degan odamni?

Yo'qolmadni qaysar-shumligim,
g'olib chiqdi dil royishlari,
Ketdim – bilsin deya kimligim
bu qishloqning uyg'otishlari!

Villar o'tdi, xayollarim – xom
qaytarkamman yozib to'rt satr.
Bir qabrga shivirlar bobom:
- Shoir keldi! Tura qol, kampir...

MUNDARIJA

Xurshid Davron. She'r himoyachisiga tilagim.....	3
"Nogoh chiqqanindida vaqt changalidan.."	5
"Aka..."	6
"Kechaga aylansa rangsiz bugunim..."	7
"Tong yaqin..."	8
"Bu kunlar ignatdek botar yodingga..."	9
"Yomg'ir sochlaringni silaydi mayin..."	10
"Ey utchmox rangari balqigan mardum..."	11
"Qushlar sayramonda..."	12
"Ozor berdim nozik ko'ngingga..."	13
Taajjub.....	14
"Ertा tongdan uyqusи uchib..."	15
"Tilinni kuydisa kechmishim rasmi..."	16
"Ortiq yashamoqqa yetarmi kuchim..."	17
"Qaysi olamlardan kelar bu ohang..."	19
"Vujudimdan silqib tushdi qish..."	20
"Qara, johil chiqdi shayxin deganligi..."	21
"Takror ko'zlaringga kelaversam duch..."	22
"Yo'limga peshvoz chiqar..."	23
"Ishon, seni baxtga etaman, gulim..."	25
"Qollarim muallaq turar ekan to..."	26
"Yo'lharimiz tutashmagandek..."	27
Tavalijuh.....	28
"Ketarkan suvratting o'ngimdan xushbaxt..."	29
Subut.....	30
"Sendan boshqa kimga bitay she'r..."	31
Taskin	32
"Bir Qo'shiq bor..."	33
O'tinch.....	34
"Barin qo'yib bersam ko'ngilga..."	35

- 119 -



UO'K: 821.512.133-1(081)

KBK: 83.3(50'zb)

S 52

S 52 Siddiq, Muhammad.

Yohu [matn]: *she'rlar* / M.Siddiq.

- Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. - 64 b.

Adabiy-badiiy nashr

MUHAMMAD SIDDIQ

YOHU

She'rlar

Muharrir: D. Mingboyeva

Badiiy muharriri: F. Ermatov

Sahifalovchi: N. Soatov

Musahihh: Sh. Hakimova

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCH]

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15, 1/90.

⌚ (98) 128-30-04.

Bosishga 20.12.2020-yilda ruxsat etildi:
Offset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90¹/₁₂.

Offset bosma. Hisob-nashriyot t: 2,0.

Adadi: 5000 nusxa. Buyurtma №327.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIQI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI
1-FILIALI

ZM'R NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
2020, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.

L. 145-2021